Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 1992.

(2). G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. “Tafakkur bo‘stoni”, T., 2012, 215-bet.

(3). Hatim B., Munday J. Translation: An Advanced Resource Book. London, Routledge, 2004.

(4). Newmark P. A Textbook of Translation. Hertfordshire: Prentice Hall, 1988.

(5). Nida E.A. Toward a Science of Translating. Leiden, Brill, 1964.

(6). Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. T., “O‘qituvchi”, 1983, 117-bet

(7). Vinay J.P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English. A Methodology for Translation. Amsterdam. John Benjamins, 1995.

Raimjonova Mushtariy Abdug‘affor qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti talabasi; raimjonovamushtariy52@gmail.com),

O‘rinboyeva Guluzro Dushayevna (Andijon davlat Chet tillari instituti “Ingliz tili nazariy aspektlari” kafedrasi o‘qituvchisi; Urinbayevaguluzro7@gmail.com; ORCID: 0009-0005-8702-25-80)

O‘ZBEK, ARAB TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING YASALISHIGA DOIR ANALITIK VA SINTETIK USULLAR

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turli tizimli tillar–agglutinativ xarakterga ega bo‘lgan o‘zbek tili hamda flektiv tabiatli arab tili misolida sifat darajalarining hosil bo‘lish qonuniyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi har ikki tilda miqdoriy belgi ifodalanishining lisoniy vositalarini sintetik va analitik usullar kesimida o‘rganishdan iborat. Maqolada o‘zbek tilidagi affiksatsiya hodisasi va arab tilidagi ichki fleksiya ya’ni ismut-tafzil qoliplari o‘rtasidagi tipologik o‘xshashliklar va farqlar dalillangan. Shuningdek, sifat darajalarini hosil qilishda yordamchi so‘zlar ishtirokida yuzaga keladigan analitik qurilmalarning har ikki til grammatikasidagi o‘rni aniqlangan. Tadqiqot natijalari chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjima nazariyasi uchun nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tipologiya, sifat darajalari, sintetik usul, analitik usul, ichki fleksiya, affiksatsiya, ismut-tafzil, qiyosiy tahlil.*

АНАЛИТИЧЕСКИЕ И СИНТЕТИЧЕСКИЕ СПОСОБЫОБРАЗОВАНИЯ СТЕПЕНЕЙ СТАВНЕНИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В УЗБЕКСКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье проводится сравнительный анализ закономерностей образования степеней сравнения прилагательных на примере языков различных систем – узбекского языка, имеющего агглютинативный характер, и арабского языка с его флективной природой. Основная цель исследования заключается в изучении лингвистических средств выражения количественного признака в обоих языках в разрезе синтетических и аналитических методов. В статье обоснованы типологические сходства и различия между явлением аффиксации в узбекском языке и внутренней флексией (модели исмут-тафзиль) в арабском языке. Также определена роль аналитических конструкций, возникающих при участии вспомогательных слов в грамматике обоих языков, в процессе образования степеней прилагательных. Результаты исследования могут служить теоретическим источником для сопоставительного языкознания и теории перевода.*

Ключевые слова: *типология, степени сравнения прилагательных, синтетический метод, аналитический метод, внутренняя флексия, аффиксация, исмут-тафзиль, сравнительный анализ.*

ANALYTICAL AND SYNTHETIC METHODS FOR THE FORMATION OF ADJECTIVE DEGREES IN THE UZBEK AND ARABIC LANGUAGES

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the formation patterns of degrees of adjectives in languages with different structural systems: Uzbek, which is agglutinative in nature, and Arabic, which possesses an inflected (flective) character. The primary objective of the research is to examine the linguistic means of expressing quantitative attributes in both languages through the lens of synthetic and analytic methods. The study substantiates the typological similarities and differences between the phenomenon of affixation in Uzbek and internal inflection (ismal-tafdil patterns) in Arabic. Furthermore, it determines the role of analytical constructions formed with the participation of auxiliary words in the grammar of both languages. The findings of this research serve as a theoretical resource for comparative linguistics and translation theory.*

Keywords: *typology, degrees of adjectives, synthetic method, analytical method, internal inflection, affixation, ismal-tafdil, comparative analysis.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan qiyosiy-tipologik tadqiqotlar qarindosh bo‘lmagan tillarning strukturaviy-funksional xususiyatlarini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Xususan, o‘zbek va arab tillarida sifat so‘z turkumi va uning grammatik kategoriyalari o‘ziga xos murakkab tizimga ega. Sifat darajalari predmet va hodisalardagi belgining normadan ortiqligi yoki kamligini

ifodalash barobarida, tillarning morfologik imkoniyatlarini ham namoyon etadi. O‘zbek tilida sifat darajalari tizimi asosan turkiy tillarga xos bo‘lgan agglutinatsiya qonuniyatiga bo‘ysunadi. Bunda sintetik usul morfologik ko‘rsatkichlar masalan, -roq qo‘shimchasi orqali amalga oshsa, analitik usulda leksik birliklar masalan, juda, eng, g‘oyat yordamida shakllanadi. Arab tilida esa bu jarayon tubdan farq qiladi. Semit tillari oilasiga mansub bo‘lgan arab tilida sifat darajalari ya’ni ismut-tafzil asosan ichki fleksiya, so‘z o‘zagining ma’lum bir qolipga (vaznga) tushishi orqali hosil bo‘ladi [1;44-b.]. Maqolaning dolzarbligi o‘zbek tilidagi daraja ko‘rsatkichlarining arab tilidagi muqobillari bilan strukturaviy jihatdan chog‘ishtirilmaganligida ko‘rinadi. Masalan, o‘zbek tilidagi "kuchliroq" (sintetik) va "juda kuchli" (analitik) birikmalarining arab tilidagi "aqva" (أَقْوَى) yoki "ashaddu quvvatan" (أَشَدُّ قُوَّةً) kabi shakllari bilan o‘zaro mos kelishi yoki farqlanishini o‘rganish lingvistik nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega [2;67-b.]. Ushbu ishda sifat darajalarining hosil bo‘lishida har ikki tilga xos bo‘lgan universal va xususiy jihatlar sintetik va analitik modellar misolida atroflicha yoritiladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda o‘zbek va arab tillaridagi sifat darajalarining lisoniy tabiatini yoritish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Xususan, qiyosiy-tipologik metod. Ikki xil tizimli (agglutinativ va flektiv) tillardagi sifat darajalarining hosil bo‘lish modellari o‘zaro chog‘ishtirildi. Bu metod orqali tillardagi universal va o‘ziga xos (spetsifik) jihatlar aniqlandi.

Komponent tahlil usuli. Sifat darajalarini hosil qiluvchi morfemalar va yordamchi so‘zlarning semantik tarkibi hamda ularning gapdagi funksional yuklamasi tahlil qilindi.

Sinxron tahlil. Har ikki tilning hozirgi adabiy tili me’yorlari asosida sifat darajalarining zamonaviy qo‘llanilish holatlari o‘rganildi.

Deskriptiv (tavsifiy) metod. O‘zbek tilidagi affiksatsiya va arab tilidagi ichki fleksiya (ismut-tafzil) jarayonlari ilmiy jihatdan tavsiflandi.

Adabiyotlar sharhi. Tadqiqotning manba bazasini o‘zbek va arab tillaridagi grammatik darsliklar, izohli lug‘atlar hamda badiiy adabiyotlardan olingan namunalar tashkil etadi. Sifat turkumi va uning daraja kategoriyasi tilshunoslikda uzoq tarixga ega bo‘lgan mavzulardan biridir. O‘zbek tilshunosligida sifat darajalarining sintetik va analitik usulda hosil bo‘lishi A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning ishlarida atroflicha o‘rganilgan. Xususan, A.G‘ulomov sifat darajalarini miqdoriy belgi ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida baholab, uning affiksatsiya orqali yuzaga kelishini sintetik usulning asosi sifatida ko‘rsatadi.

Arab tilshunosligida sifat darajalari (ismut-tafzil) klassik va zamonaviy grammatikada keng yoritilgan. Sibbavayhiydan boshlangan klassik arab tili an’anasida "af'alu" (أَفْعَلُ) vazni sifatning qiyosiy va orttirma ma’nolarini ifodalovchi asosiy qolip sifatida tahlil qilinadi. Zamonaviy arab tilshunosligida, xususan, V.G.Axvlediani va B.M.Grande kabi sharqshunos olimlarning tadqiqotlarida arab tilidagi sifat darajalarining fleksiv tabiati va ularning boshqa tillar bilan tipologik o‘xshashliklari qayd etilgan [3;32-b.]. Shunga qaramay, o‘zbek va arab tillaridagi sifat darajalarini bevosita sintetik va analitik modellar kesimida qiyoslagan maxsus tadqiqotlar kamchilikni tashkil etadi. Mavjud adabiyotlarda o‘zbek tilidagi -roq qo‘shimchasi va arab tilidagi af'alu vazni, ko‘pincha, alohida tizimlar sifatida o‘rganilgan. Ushbu maqola esa mazkur ikki tizimni yagona tipologik platformada birlashtirish orqali mavjud ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi.

Natijalar. O‘zbek va arab tillarida sifat darajalarining hosil bo‘lishini qiyosiy tahlil qilish quyidagi natijalarni namoyon bo‘lishiga turtki bo‘ldi:

1. Sintetik usulning strukturaviy tafovutlari. O‘zbek tilida sintetik usul agglyutinatsiya (o‘zakka qo‘shimcha qo‘shish) tamoyiliga asoslanadi. Masalan, baland-roq, yaxshi-roq. Arab tilida esa sintetik usul ichki fleksiya (so‘z o‘zagining o‘zgarishi) orqali namoyon bo‘ladi. Sifatlar f-a'-l (ف-ع-ل) o‘zagi asosida afa'lu (أَفْعَلُ) qolipiga o‘tadi [4;13-b.]. Masalan, jamilun – chiroyli, ajmalu – chiroyliroq. Bu ikki tilning tub morfologik farqini ko‘rsatadi.

2. Analitik usulning funksional doirasi. Har ikki tilda ham analitik usul sifat darajasini leksik birliklar yordamida kuchaytirishga xizmat qiladi, biroq ularning qo‘llanilish sabablari turlichadir. O‘zbek tilida analitik usul (eng, juda, g‘oyat, nihoyatda), asosan, sifatning orttirma darajasini hosil qilish va belgi miqdorini ekspressiv bo‘rttirish uchun qo‘llaniladi.

Arab tilida analitik usul ko‘pincha sintetik qolip (vazn)ni yasash imkoni bo‘lmagan hollarda (masalan, rang-tus yoki nuqson bildiruvchi sifatlar, yoki o‘zagi to‘rtdan ortiq harfli sifatlar uchun) qo‘llaniladi [5;25-b.]. Bunda ashaddu – kuchliroq, aksaru – ko‘proq kabi so‘zlarga sifatning masdari (otlashgan shakli) qo‘shiladi: ashaddu xumrotan – qizilroq. Agar so‘zma-so‘z tarjima qilsak, qizilligi kuchliroq deb aytamiz.

3. "Ismut-tafzil"ning polifunksionalligi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida qiyosiy (-roq) va orttirma (eng) darajalar alohida morfologik va sintaktik ko‘rsatkichlarga ega. Arab tilida esa bitta sintetik shakl (af'alu vazni) matndagi holatiga qarab ham qiyosiy, ham orttirma daraja ma’nosini bera oladi. Ma-

salan, Atvalu (أَطوَلُ) so‘zi “min”–“dan” predlogi bilan kelsa, "kattaroq", aniqlik artikli (al-) bilan kelsa, "eng katta" ma’nosini anglatadi.

4. Qiyosiy model o‘xshashligi. Sintaktik sathda har ikki tilda ham qiyoslash obyekti maxsus vositalar bilan bog‘lanadi. Masalan, o‘zbek tilida “Hasan Husandan uzunroq” desak, gapdagi -dan qo‘shimchasi chiqish kelishigida. Arab tilida “Hasan atvalu min husaynin” desak, ushbu gapdagi “min” qo‘shimchasi ham -dan deb tarjima qilinadi va chiqish kelishigiga oiddir [6;18-b.].

Muhokama. O‘zbek va arab tillarida sifat darajalarining hosil bo‘lish mexanizmlarini qiyoslash orqali shuni ta’kidlash lozimki, har ikki tildagi farqlar bevosita ularning tipologik tabiatiga borib taqaladi. Birinchidan, o‘zbek tilida sifat darajalari tizimi ko‘proq analitiklikka moyil. Garchi -roq qo‘shimchasi sintetik vosita bo‘lsa-da, u tilda juda barqaror emas, ko‘pincha, qiyos ma’nosi leksik-sintaktik usullar (masalan, qiyoslanayotgan so‘zga -dan qo‘shimchasini qo‘shish) orqali ifodalanadi. Arab tilida esa sintetizm (ichki fleksiya) shunchalik kuchliki, u, hatto so‘zning leksik-semantik xususiyatlarini ham o‘zgartira oladi. Bu holat turkiy tillardagi agglutinatsiya (tashqi qo‘shimcha) va somiy tillardagi fuziya (ichki o‘zgarish) o‘rtasidagi fundamental tafovutni tasdiqlaydi. Ikkinchidan, tadqiqot jarayonida analitik usulning arab tilida "grammatik kompensatsiya" vazifasini bajarishi aniqlandi. Ya’ni, agar sifatning o‘zak tuzilishi (masalan, rang-tus bildiruvchi ahmar – "qizil" so‘zi) allaqachon af'alu qolipiga o‘xshash bo‘lsa, chalkashlikning oldini olish uchun arab tili sintetik usuldan voz kechadi va analitik usulga (ashaddu xumrotan) o‘tadi [7:41-b.]. O‘zbek tilida esa bunday cheklov deyarli yo‘q; analitik usul ko‘proq belgi miqdorining darajasini (orttirma daraja) ko‘rsatish uchun tanlanadi. Uchinchidan, tahlillarimiz o‘zbek tilidagi “eng” va arab tilidagi “al” artikli bilan kelgan ismut-tafzil shakllarining funksional yaqinligini ko‘rsatadi. Ikkala holatda ham predmetning boshqa turdoshlari orasida mutloq ustunligi (orttirma daraja) ifodalanadi. Biroq arab tilida bu ma’no morfologik shakl va artikl hamkorligida yuzaga kelsa, o‘zbek tilida sof leksik-sintaktik usul ustuvorlik qiladi.

Demak, sifat darajalari har ikki tilda ham o‘ziga xos boy imkoniyatlarga ega. O‘zbek tili sifat darajalarini hosil qilishda turli xil yordamchi so‘zlar (analitik vositalar) hisobiga ekspressivlikni ta’minlasa, arab tili qat’iy qoliplar (sintetik vositalar) orqali mantiqiy aniqlik va ixchamlikka intiladi.

Xulosa. O‘zbek va arab tillarida sifat darajalarining hosil bo‘lishida analitik va sintetik usullarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ikki til o‘zining genetik va tipologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘ziga xos darajalanish tizimiga ega. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:

Morfologik xususiyatlar. O‘zbek tilida sifat darajalarining sintetik usuli agglutinativ xarakterga ega bo‘lib, asosan -roq qo‘shimchasi orqali amalga oshadi. Arab tilida esa sintetizm ichki fleksiya – so‘z o‘zagining af'alu qolipiga tushishi orqali namoyon bo‘ladi [8;50-b.]. Bu holat arab tili tizimining o‘zbek tiliga nisbatan morfologik jihatdan ixchamroq va o‘zgaruvchanroq ekanligini tasdiqlaydi.

Analitizmning roli. Har ikki tilda ham analitik usul sifatning belgisini kuchaytirish yoki morfologik cheklovlarni chetlab o‘tish uchun xizmat qiladi [9–21-b.]. O‘zbek tilida analitik usul (eng, juda, g‘oyat) orttirma darajani hosil qilishning asosiy vositasi bo‘lsa, arab tilida u ko‘pincha qoliplashishi qiyin bo‘lgan sifatlar (masalan, rang-tus va nuqson sifatlari) uchun yordamchi usul sifatida qo‘llaniladi [10:33-b.].

Funksional muvofiqlik. Arab tilidagi ismut-tafzil, ya’ni, qiyosiy-orttirma daraja shakli o‘zbek tilidagi ham qiyosiy, ham orttirma daraja vazifasini bajara olishi bilan universal xususiyatga ega [11:60-b.]. Bu holat tarjima jarayonida kontekstga alohida e’tibor berishni taqozo etadi.

Nazariy va amaliy ahamiyat. Sifat darajalarining ushbu qiyosiy tahlili ikki til grammatikasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni tizimlashtirish imkonini beradi [12:78-b.]. Tadqiqot xulosalari oliy o‘quv yurtlarida qiyosiy tipologiya va tarjimashunoslik fanlarini o‘qitishda, shuningdek, ikki tilli lug‘atlar tuzishda amaliy manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Fikrimizcha, o‘zbek tilining boy affiksatsiya tizimi va arab tilining moslashuvchan fleksiv qoliplari har ikki tilning o‘ziga xos lisoniy tabiatini aks ettiruvchi mukammal darajalanish tizimini yuzaga keltirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). G‘ulomov A. O‘zbek tili morfologiyasi. Sifat. Toshkent, “Fan”, 1955, 44-bet.

(2). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. Toshkent, “Universitet”, 2000, 67-bet.

(3). Sayfullayeva R., Qurbonova M., Boqiyeva G. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2009, 32-bet.

(4). Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili darsligi. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007, 13-bet.

(5). Гранде В.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. Москва, “Восточная литература”, 1998, 25-bet.

(6). Ахледивани В.Ж. Арабское языкознание. Тбилиси, “Мецниереба”, 1985, с. 18.

(7). Sattorov A. Arab tili grammatikasi. Toshkent, Toshkent islom universiteti, 2012, 41-bet.

(8). Yusupov O‘. Nazariy tipologiya asoslari. Toshkent, “Fan”, 2007, 50-bet.
(9). Haywood J.A., Nahmad H.M. A New Arabic Grammar of the Written Language. London, Lund Humphries, 1965, 21 p.
(10). Wright W. A Grammar of the Arabic Language. Cambridge, Cambridge University Press, 1996, 33 p..
(11). Ibn Hishom Al Ansoriy. Sharh Qotrun Nada. Dorul kutub, 2018, 60-bet.
(12). Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Toshkent, G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2024, 78-bet.

Mirzayeva Nargizoy Sanjarovna (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Andijon davlat Texnika instituti; e-mail: mirzayevaandmi@gmail.com)

“UY” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI LINGVOKULTUROLOGIK QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “uy” konseptining ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvokulturologik xususiyatlari zamonaviy qiyosiy tahlil usullari asosida o‘rganildi. Tadqiqot nazariy bazasi kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyaga tayanib, 14000 dan ortiq korpus birligi hamda empirik assosiativ eksperimet materiallaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil natijalar “uy” konseptining universal (moddiy obyekt, xavfsizlik) va milliy-madaniy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatdi. Ingliz tilida “house” (bino) va “home” (ruhiy maskan) o‘rtasida semantik differensiyasi aniqlanib, konseptning individualism, shaxsiy erkinlik va qulaylik qadriyatlariga yo‘altirilgani tasdiqlandi.*

Kalit so‘zlar: *“uy” konsepti, lingvokulturologiya, qiyosiy tahlil, madaniy qadriyatlar, individualizm, kollektivizm, assotsiativ eksperiment, korpus lingvistikasi.*

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА «ДОМ» В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ

Аннотация. *В данной статье лингвокультурологические особенности концепта «дом» в английском и узбекском языках изучены на основе современных методов сравнительного анализа. Теоретическая база исследования опирается на когнитивную лингвистику и лингвокультурологию и использовалась в более чем 14000 корпусных единицах и эмпирическом ассоциативном анализе. Результаты сравнительного анализа выявили универсальные (материальный объект, безопасность) и национально-культурные особенности концепта «дом» В английском языке семантически определена связь между «house» (здание) и «home» (духовное пространство), и подтверждено, что концепт ориентирован на ценности индивидуализма, личной свободы и комфорта.*

Ключевые слова: *концепт «дом», лингвокультурология, сравнительный анализ, культурные ценности, индивидуализм, коллективизм, ассоциативный эксперимент, корпусная лингвистика.*

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CONCEPT “HOME” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES IN LINGUOCULTUROLOGY

Annotation. *In this article, the linguacultural features of the concept “home” in the English and Uzbek languages were studied based on modern methods of comparative analysis. The theoretical basis of the research, based on cognitive linguistics and linguaculturology, was used in more than 14,000 corpus units and empirical associative analysis. The results of the comparative analysis highlighted the universal (material object, security) and national-cultural features of the concept of “home”. In the English language, a semantic distinction was made between “house” (building) and “home” (spiritual space), and it was confirmed that the concept is oriented towards the values of individualism, personal freedom, and comfort.*

Keywords: *concept of “home”, linguaculturology, comparative analysis, cultural values, individualism, collectivism, associative experiment, corpus linguistics.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy lingvistika tilni ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o‘rganadi. Kognitiv-diskursiv paradigma doirasida til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki milliy dunyoqarash, madaniy xotira va qiymat tizimining asosiy tashuvchisi hisoblanadi. Lingvokulturologiya – til va madaniyatning o‘zaro ta’sirini, til birliklarida milliy-madaniy xususiyatlarning namoyon bo‘lishini tadqiq etuvchi fanlararo yo‘nalish bo‘lib, XX asrning oxiri va XXI asr boshida alohida fan sohasi sifatida shakllanirildi. Lingvokulturologiyaning asosiy obyekti konsept tushunchasidir. Konsept – bu til, ong va madaniyatning kesishmasida joylashgan murakkab ma’naviy tuzilma bo‘lib, u ma’lum bir xalqning madaniy tajribasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Y.S.Stepanov konseptni “madaniyatning genlaridan biri” deb ta’riflaydi [7]. A.Wierzbicka konseptlarni ma’lum bir madaniyat uchun kalit so‘zlar orqali tadqiq etish metodologiyasini ishlab chiqdi [6]. Ingliz tilida “home”, o‘zbek tilida “uy”